

MAQOLALAR

СТАТЬИ

ARTICLES

O'ZBEKISTONDA O'RTA PALEOLITDAN DAN SO'NGGI PALEOLITGA O'TISHNING O'RTA ZARAFSHON MODELI¹

© 2025 Baxtiyor Sayfullaev

Y. G'. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

Kalit so'zlar: Obirahmat varianti, o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish, Zirabuloq, O'rta Zarafshon, Toshkent vohasi, nukleus, plastina, mikrochaqmoqlash, iskanasimon qurol, xomashyo, muste, paleolit.

O'zbekiston-Rossiya xalqaro hamkor arxeologik ekspeditsiyasining 1998-2011 yillarda Toshkent vohasida amalga oshirgan tadqiqotlari tufayli o'rtadan so'nggi paleolitga o'tishning Obirahmat modeli ishlab chiqildi. Ushbu model yoki variant Yaqin Sharq va Zagrosning o'rta paleoliti madaniyatlari bilan madaniy aloqada hamda mahalliy asosda rivojlanib, so'nggi paleolit madaniyatiga o'sib o'tganligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Toshkent vohasidagi Obirahmat, Qizilolma-2, Ko'lbuloq va To'daxotin 1 va 2 makonlari Obirahmat modeli yodgorliklari qatoriga kiritildi. Ma'lumki, shu paytgacha o'rta paleolit davri madaniyatlari F. Bord tomonidan Fransiya materiallari asosida ajratilgan tizimga ko'ra ajratilib kelingan edi. Shuningdek dunyoda so'nggi paleolitning boshlanishi zamonaviy jismoniy tipdagi (homo sapiens sapiens) odamning paydo bo'lishi oqibatida sodir bo'lgan revolyusion madaniy sakrashlar bilan bog'liq, deb hisoblab kelindi. Hozirgi kunda aksincha, o'rtadan so'nggi paleolit davriga o'tish asta-sekin, tadrijiy yo'l bilan sodir bo'lganligini, bunda so'nggi paleolitga xos madaniy elementlar o'rta paleolit davridayoq shakllana boshlanganligini ko'rsatmoqda. Maqolada Samarqand shahridan 100 km shimoliy-g'arbda, dengiz sathidan 475 m balandlikda, Ziyovuddin tog'lari etaklarida joylashgan Zirabuloq topilmajoyi arxeologik materiallari asosida o'rtadan so'nggi paleolit davriga o'tishning O'rta Zarafshon modeli ajratilmoqda. Shuningdek ushbu variantning Toshkent vohasidagi Obirahmat modelidan farqi va o'xshashliklari aniqlangan. Bunday o'xshashliklar qatoriga har ikkala voqa paleoliti yodgorliklarining levallua texnologiyalari asosida rivojlanganligi, yonlama, prizmatik va levallua nukleuslar, iskanasimon qurollar, qalin tipli qirg'ichchalar hamda oddiy kesgichlarning mavjudligida ekanligi aniqlangan. Tafovutlar esa, shubhasiz, paleoekologik muhitning turlichaligi bilan bog'liq bo'lib, O'rta Zarafshon vohasi paleolitida mavjud ko'rsatgich barmoqqa mo'ljallangan tosh pichoqlarni sindirib olish texnologiyalarining Toshkent vohasida va aksincha, Obirahmatdagi keng yuza bo'ylab asimmetrik plastinalar chaqmoqlash usulining Zirabuloqda uchramasligi asoslab berilgan. Bundan tashqari, Obirahmat variantida qirg'ichchalarning faqat qalin tipi (caréné) mavjud bo'lsa, Zirabuloqda ularning tumshuqsimon (à museau), periferik, yumaloq va h.k., G'arbiy Yevropaning Orinyak madaniyatiga xos turlari uchrashi aniqlangan. Tilga olingan tafovutlar, garchi ehtimol, kelib chiqishi bir bo'lgan Toshkent va Zarafshon vohalari ilk so'nggi paleolitini alohida variantlarga ajratish imkonini beradi.

СРЕДНЕЗАРАФШАНСКАЯ МОДЕЛЬ ПЕРЕХОДА СРЕДНЕГО К ВЕРХНЕМУ ПАЛЕОЛИТУ УЗБЕКИСТАНА

© 2025 Бахтиёр Сайфуллаев

Самаркандский институт археологии имени Я. Г. Гулямова

Ключевые слова: Обирахматский вариант, переход от среднего к позднему палеолиту, Зирабулак, Средний Зарафшан, Ташкентский оазис, нуклеус, пластина, микрорасщепления, долотовидное орудие, сырье, мустье, палеолит.

В результате исследований совместной Узбекско-Российской международной археологической экспедиции в Ташкентском оазисе в 1998-2011 гг. разработана Обирахматская модель перехода от среднего к позднему

¹ Ushbu maqola qisqartirilgan shaklda Mamun Akademiyasi Axborotnomasining 2024-11/3 (170-175 betlar) sonida illyustratsiyalarsiz chop etilgan edi va keng jamoatchilikka tushunarli bo'lishi uchun uni to'liq tarzda nashr etishni lozim topdik.



палеолиту. Научно доказано, что эта модель или вариант развивались на местной основе в тесном контакте со среднепалеолитическими культурами Ближнего Востока и Загроса и переросли в позднепалеолитическую культуру. Позднепалеолитические стоянки Ташкентского оазиса, такие, как Обирахмат, Кызылалма-2, Кулбулак и Додекатым 1 и 2, отнесены к памятникам Обирахматской модели. Известно, что до сих пор среднепалеолитические культуры определялись по системе Ф. Борда, созданной на основе материалов Франции. Кроме того, начало позднего палеолита в мире считалось происходившим в результате революционно-культурного скачка, связанного с появлением человека современного физического типа (*homo sapiens sapiens*). На сегодняшний день считается, что переход от среднего к позднему палеолиту происходил постепенно, эволюционным путем, при котором культурные элементы, характерные для позднего палеолита, начали формироваться еще в среднем древнекаменном веке. В статье выделяется Среднезарафшанский переход от среднего к позднему палеолиту на основе археологических материалов местонахождения селения Зирабулак. Памятник расположен в 100 км северо-западнее от г. Самарканда, у подножий Знауддинских гор, на высоте 475 м над уровнем моря. Кроме того, определены различия и сходство данной модели с Обирахматским вариантом в Ташкентском оазисе. Схожесть этих вариантов заключается в развитии обеих культур на основе леваллуазских технологий, в наличии торцовых, призматических и леваллуазских нуклеусов, а также долотовидных орудий, скребков высокой формы и ординарных резцов. Различия между ними, несомненно, связанные с палеоэкологическими условиями, прослеживаются в отсутствии в Обирахмате Зирабулакских нуклеусов, предназначенных для снятия ножей указательного пальца и, наоборот, отсутствием в палеолите Среднего Зарафшана технологий объемных ядриц для снятия асимметричных пластин, широко представленных в Обирахмате. Кроме того, в комплексах Обирахматского варианта встречается только разновидности скребков высокой формы (*caréné*), а в Зирабулаке выявлены скребки, характерные для Оринякской культуры Западной Европы, такие, как клвововидные (*à museau*), периферийные, округлые и т. д. Упомянутые различия, хотя, возможно, и они имеют одинаковые корни происхождения, позволяют выделить отдельные варианты раннего позднего палеолита в Ташкентском оазисе и в долине Зарафшана.

Kirish


O'zbekiston hududi rangbarang paleolit davri madaniyatlariga boy dunyoning kam sonli o'lkalaridan biridir. Yurtimizning qulay geografik joylashuvi va paleoekologik sharoitlari kishilik tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlab ibtidoiy populyatsiyalarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Hudud qadimgi madaniyatlar nuqtai-nazaridan g'arbni sharq bilan, janubni shimol bilan bog'lovchi chorraxa vazifasini o'tagan. Bu holat O'zbekistondan topilgan qadimgi tosh davri madaniyatlari misolida yoqqol namoyon bo'ladi.

O'rta paleolit davri komplekslarini fatsial differentsiyalash dastavval XX asrning 60-yillarida Fransua Bord tomonidan Fransiyadagi muste davri industriyalarini turlarini to'laroq aks ettirish maqsadida taklif qilingan edi (Bordes 1961: 8) Fatsiyalarni ajratish uchun fransuz tadqiqotchisi tomonidan tipologik usul qo'llanilgan bo'lib, uning doirasida industriyalarning nukleuslari va tosh qurollari yagona tip-varaqalardan foydalanish asosida o'rganilgan va qiyoslangan (tip-list F. Borda) hamda unifikatsiya qilingan tipologik va texnologik indekslar qo'llanilgan (levallua indeksi, plastinalar indeksi, qirg'ichlar indeksi va h.k.). Tosh inventarlarning yagona ta'riflash (описание) va qiyoslash standartlarining ishlab chiqilishi Fransiyaning o'rta paleoliti tadqiqotchilarini qiziqtirib qo'ydi va geografik jihatdan olis hududlarning paleolit davri yodgorliklari materiallarini ular bilan taqqoslash imkonini berdi. Shunday qilib, Janubiy Fransiyaning muste davri industriyalari turli-tumanligini ko'rsatish uchun ishlab chiqilgan madaniy rivojlanish sxemasi u yoki bu darajada moslashtirilib, Ko'hna dunyoning boshqa hududlariga ham ko'chirildi. Ammo ayrim hollarda regional madaniy taraqqiyot sxemalarini Yevropaning madaniy ketma-ketligi asosida tuzish ishlari formal harakterga ega bo'lgan va bu qadimgi odam madaniy evolyusiyasining turli bosqichlaridagi o'ziga xosliklari va o'zaro aloqalarini talqin qilishda xatoliklarga olib keldi. Xususan, O'zbekistonda olib borilgan yangi tadqiqotlar O'rta Osiyo hududida tishsimon muste madaniyatining ajratilishini xato ekanligini ko'rsatdi.

XXI asr boshlarida O'zbekiston–Rossiya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi tomonidan Toshkent vohasi yodgorliklari (Obiraxmat, Qizilolma-2, Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari va To'daxotin 1–2) misolida o'rtadan so'nggi paleolitga o'tishning Obirahmat varianti taklif qilindi (Кривошапкин 1992: 5).



1-rasm. Zirabuloq makoni (hozirgi ko'rinishi)
 Рис. 1. Стоянка Зирабулак (настоящее время)
 Fig. 1. Zirabulak site (current appearance)




2-rasm. Zirabuloq makonining joylashuv xaritasi
 Рис. 2. Карта расположения стоянки Зирабулак
 Fig. 2. Map showing the location of the Zirabulak site

G'arbiy Pomir-Tyanshanning ko'zga ko'ringan plastinali industriyalarini tahlil qilish natijalari ularning yagona madaniy an'anaga mansub ekanligini ta'kidlash imkonini berdi va bu madaniyat er. av. 80-70 ming yillardan er.av. 40-35 ming yillargacha hukm surganligi aniqlandi.

Obirahmat industriyasini qo'shni industriyalar bilan qiyoslash o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish davriga oid Obirahmat variantini Yaqin Sharq plastinali levallua hamda Zagros mustesi bilan bo'lgan o'zaro madaniy aloqalar natijasida shakllanganligini ko'rsatdi (akkulturatsiya).

O'rtadan so'nggi paleolitga o'tishning Obirahmat variantini spesifik xususiyati, unda mayda mikroplastinkasimon chaqmoqlash texnikasi turlarining ancha ertaroq paydo bo'lganligi, shuningdek Obirahmat madaniy an'anasi ushbu hududda so'nggi paleolitning shakllanishida asosiy manba bo'lib xizmat qilganligi aniqlandi (Кривошапкин 1992: 12).

Nisbatan yaqin kunlarga paleolitshunoslikdagi asosiy paradigma bu zamonaviy tipdagi odamning madaniy va texnologik taraqqiyotida eng muhim *evolyusion sakrash er.av. 40 ming yilliklarda yuqori paleolit revolyusiyasi natijasida sodir bo'lgan, degan nuqtai-nazar edi*. Bunda madaniy va texnologik o'zgarishlarning boshlanishi bevosita odam jismoniy tipining hamda mental qobiliyatlarining evolyusiyasi bilan, ya'ni ilgari neandertallar tomonidan o'zlashtirilgan Yevropa hududida ilk Homo sapiens sapienslar jamoalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq deb hisoblanardi. Toshga ishlov berishning yangi strategiyalari, suyak va shoxdan qurollar yasash, taqinchoqlardan foydalanish hamda san'at asarlarining yaratilishi aynan ushbu fenomen atrofiga birlashtirilgan edi. Bundan tashqari, madaniy o'zgarishlarning xarakteri, belgilari va asosiy yo'nalishlari Yevropa hududida ajratilgan mezonlarga mos kelishi kerak bo'lgan. Shunga



3-rasm. Zirabuloq makonining so'nggi paleolitga oid plastinalari (yengil ushatg'ich yordamida chaqmoqlangan)


Рис. 3. Позднепалеолитические пластины со стоянки Зирабулак (расщепленные с помощью легких отбойников)

Fig. 3. Late Palaeolithic plaques from the Zirabulak site (split using light hammers)

ham mavjud bo'lganligi aniqlandi (https://www.ras.ru/derevianko_ru/944bfb4a-6791-4e59-908c-5085d6f9fe6d.aspx).

Hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish jarayonlarini tahlil qilishda, avvalombor, regional kontekstni hisobga olish zarur, degan xulosaga keldilar. Bunday yondashuv oxir-oqibatda o'rtadan so'nggi paleolitga o'tishning ko'plab turli xil regional «variantlari» yoki «ssenariylari»ning paydo bo'lishiga olib keldi va ularning har biri u yoki bu darajada o'rtadan so'nggi paleolitga o'tishdagi uchta asosiy modellarning turli aksentlarini ifoda etadi: mahalliy asosda lokal evolyusiyasi, kelgindi madaniyatlar bilan o'rin almashinuv («сложившейся») va akkulturasion (akkulturatsiya - boshqa xalqning madaniyatini qabul qilish; begona madaniyatga moslashish) modellari (Деревянко 2009: 10). O'tish yoki ilk so'nggi


mos ravishda, turli industriyalarning taraqqiyot darajasi Yevropa quruqligi klassik so'nggi paleolit davri industriyalari uchun ajratilgan mezonlar asosida baholangan. Ammo Yevropa o'ykumenasidan tashqarida paleolit davrini o'rganishning intensivatsiyasi tufayli ushbu paradigma o'zining universalligini yo'qotdi. Oxirgi yillarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar, bir tomondan, odamning zamonaviy anatomiyasi anchayin ilgari paydo bo'lganligini, ikkinchi tomondan, so'nggi paleolitning qator asosiy madaniy belgilari arxeologik komplekslarda anchayin qadimgi davrlardan boshlab qayd etilishini ko'rsatdi. Xususan, Janubiy Afrikada oxirgi o'n yilliklarda shunday arxeologik komplekslar aniqlandikim, ularda bundan 65–70 ming yillar muqaddam suyak qurollar va dengiz molyuskalari chig'anoqlaridan teshib ishlangan shaxsiy taqinchoqlar hamda moybo'yoq (pigment) yordamida simbolik (abstrakt) hayot va hatto, tosh asrining ancha keyingi davrlarini ajratishning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan geometrik artefaktlar ishlab chiqarish texnologiyasining




4-rasm. Zirabuloq makoniga oid levallua tipidagi tig'lari

Рис. 4. Леваллуазские острья со стоянки Зирабулак

Fig. 4. Levallois points from the Zirabulak site



5-rasm. Zirabuloq makoniga oid levallua plastinalari
 Рис. 5. Пластины со стоянки Зирабулак
 Fig. 5. Levallois plaques from the Zirabulak site



6-rasm. Zirabuloq makonifa oid nukleus-kesgichlari
 Рис. 6. Нуклеусы-резцы со стоянки Зирабулак
 Fig. 6. Cores-burins from the Zirabulak site

paleolit industriyalarini aniqlash mezonlariga kelsak, tadqiqotchilarning ko‘pchiligi hozirda “zamonaviy odamning kundalik turmushi kompleksi” harakteristikasini ishga solmoqdalar va ularni u yoki bu tartibda saqlab, masalan, baribir bitta asosiy belgiga (toshlarni yo‘nish texnikasining o‘zgarishi, plastinasimon texnologiyaning ustunligi va h.k.lar), yoki konkret industriyada turli “zamonaviy” komponentlarning mavjudligi darajasini baholashning dinamik sistemasini tuzishdan foydalanmoqdalar (Вишняцкий 2004: 7). Markaziy Osiyo hududidagi mashhur yodgorliklarga tayangan holda (xususan, G‘arbiy Pomir-Tyanshan hududi yodgorliklari), “*frontir*” g‘oyasi ishonchliroq deb topildi, ya‘ni turli populyatsiyalarning kontakt zonasida tabiiy resurslar uchun konkurensiya sharoitida texnologik va madaniy innovatsiyalarning tezlashuvi jarayoni sodir bo‘lgan, deyish mumkin (Деревянко 2009: 190).

Usullar/materiallar.

Zirabuloq topilma joyining ko‘p sonli tosh buyumlarini tadqiq qilishda M. Brezilyonning tipologik (Brezillon 1983: 425), J. Peligrin va J-P. Tikselarning texnologik (Pelegrin Jacque, Texier Pierre-Jean 2004: 33) hamda S. Tibuaning “mexanik retush va soxta qurollar” (Thiebaut 2010: 232) haqidagi morfologik hamda qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.


Zirabuloq topilmajoyi Ziyovuddin tog‘lari etaklaridagi shu nomli chashma atrofida (1-rasm), Qo‘tirbuloq makonidan 1,5 km sharqroqda (Ташкенбаев 1987: 3–11), dengiz sathidan 475 m balandlikda (koordinatlari: 0253115 S, 4422094 V) joylashgan (2-rasm). Yodgorlik 1971 yilda Y. F. Buryakov rahbarligidagi Samarqand arxeologik guruhi tomonidan aniqlangan va dastavval N. X. Toshkenboev tomonidan qazib o‘rganilgan (1972, 1978 va 1984 yillar). Yodgorlik 1977–1978 yillarda Samarqand Davlat universiteti tomonidan o‘rganilgan va minglab tosh buyumlar yig‘ib olingan (Гречкина 1990: 13, Сайфуллаев 2023: 385).

Zirabuloq topilmajoyi tosh buyumlari kolleksiyasi saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko'ra o'rta, so'nggi paleolit va mezolit davrlariga oid komplekslar ajraladi. Kolleksiyada plastinatinalar qo'lga kiritish maqsadida yengil ushatg'ich yordamida chaqmoqlangan yo'nilg'ilar uchraydi (3-rasm). Bu plastinalar prizmatik, bir yoki ikki zarb maydonli o'zaklardan chaqmoqlab olingan. Zirabuloqning so'nggi paleolitga oid kompleksi birlamchi ishlov berilgan tosh buyumlari orasida nukleuslar, levallua tig'lar (4-rasm), levallua plastinalar (5-rasm), oddiy va ayrim retushlangan plastinalar uchraydi.

Zirabuloqning ilk so'nggi paleolitga oid kompleksida ayrim yonlama nukleus-kesgichlar uchraydi (6-rasm) va bu Obirahmatda bo'lgani singari o'rta paleolit davridan meros bo'lib qolgan tosh sindirish texnologiyalaridan hisoblanadi. Adabiyotlarda bu tipdagi o'zaklar nukleus-kesgichlar deb ataladi va so'nggi paleolit davrini xarakterlaydi. Negaki, aksariyat hollarda ulardan mikroplastinkalar yoki plastinkalar chaqmoqlab olingan.

Zirabuloqning ilk so'nggi paleolit davri kolleksiyasida paleolitshunoslikda noma'lum bo'lgan o'zak toshlarning yangi tipi aniqlandi. Bunday nukleuslar "o'zingga tort" tipidagi tosh pichoklarni chaqmoqlab olish uchun oldindan (nukleuslarning pastki uchi qiya yo'nishlar yordamida kesilgan) tayyorlangan konseptual tosh sindirish texnikasini namoyon qiladi (7-rasm). Dunyo paleolitshunosligida hali bunday nukleus tiplari aniqlanmaganligi sababli ushbu o'zaklar «Zirabulok tipidagi chaqmoqlash usuli» yoki «Zirabulok tipidagi nukleuslar» deb, ulardan hosil qilingan tanovorlarni (ba'zan qirralaridan biri retushlangan va ko'rsatgich barmoqda ushlashga mo'ljallangan yo'nilg'ilarni) esa, «Zirabulok tipidagi ko'rsatgich barmoq pichoqlari» (8-rasm), deb nomlangan (Сайфуллаев 2023: 136).


Dunyo paleolitshunosligida nukleus-dayoq proeksiya qilingan tosh pichoqlar Fransiyadagi Biz (*couteaux de Bize*)



7-rasm. Zirabuloq makoniga oid ko'rsatgich barmoqqa mo'ljallangan tosh pichoqlarni chaqmoqlashga mo'ljallangan nukleuslar (rangli chizmalarda sindirib olingan tosh pichoqlar soni ko'rsatilgan)

Рис. 7. Нуклеусы для откалывания ножевидных пластин, предназначенных для работы указательным пальцем со стоянки Зирабулак (цветными указано количество расколотых ножей)


Fig. 7. Cores for removing the index finger knives from the Zirabulak site (the number of split knives is indicated in colour)




8-rasm. Zirabuloq makoniga oid ko'rsatgich barmoqqa mo'ljallangan tosh pichoqlar

Рис. 8. Каменные ножи предназначенные для работы указательным пальцем со стоянки Зирабулак

Fig. 8. Knives of the index finger of the Zirabulak site



9-rasm. Zirabuloq makoni iskanasimon qurollari
 Рис. 9. Долотовидные орудия стоянки Зирабулак
 Fig. 9. Chisel-shaped tools from the Zirabulak site



10-rasm. Zirabuloq makoni qirg'ichchalari: 1-tumshuqsimon qirg'ichcha, 2-Orinyak tipidagi qirg'ichcha bo'lagi, 3-qalin tipli qirg'ichcha (caréné)
 Рис. 10. Скребки стоянки Зирабулак: 1 – скребок с носиком, 2 – фрагмент скребка ориньякского типа, 3 – скребок высокой формы (caréné)
 Fig. 10. Scrapers from the Zirabulak site: 1 – scraper with a spout, 2 – fragment of an Aurignacian-type scraper, 3 – high-shaped scraper (caréné)

yodgorligidan topilgan va ular shu nom bilan lug'atlarga kirgan. Biroq Zirabuloqdagidan farqli ravishda, ularning qirralaridan biri to'liq tarashlanib, o'tmaslashtirilgan pichoqlardir (Lumley 1971: 130).

“Ko'rsatgich barmoq” tipidagi tosh pichoqlar O'zbekistonning paleolit (Сулейманов 2003: 21) va Kavkazning mezolit davri yodgorliklarida ham aniqlangan (Семёнов 1957: S. 128). Biroq bu buyumlar yo'nilg'i-tanovorlar nukleusdan chaqmoqlab olinganidan keyingina plastinalarning distal uchlarini qiya sindirish yordamida pichoqlarga aylantirilgan va so'ngra qirralaridan biriga retush berilgan. Ayrim tipologik usullarda bunday buyumlar qiya sindirilgan plastinalar yoki yo'nilg'ilar deb nom olgan (Lumley 1974: 41).

Davriy jihatdan aytish mumkinki, Zirabuloqni ko'rsatgich barmoqqa mo'ljallangan tosh pichoqlari tanovorlarining aksariyatiyengiltoshushatg'ichlaryordamida chaqmoqlab olinganligi aniqlandi. Ma'lumki, ushbu texnika so'nggi paleolit davrida paydo bo'lib, keyingi davrlarda ham hukm surgan. Funktsional jihatdan bunday pichoqlar baliqni tangachalardan tozalashda ishlatilgan. Ehtimol, Kavkazning mezolit davriga oid Fatma-Koba g'orida bo'lgani (Семёнов 1957: 129) kabi ko'hna Zarafshon va buloq bo'yida yashagan zirabuloqliklarda ham primitiv baliqchilik xo'jaligi mavjud bo'lgan.

Bunday maxsus tayyorlangan o'zaklarning ish yuzasida beshtagacha ko'rsagich barmoq tipidagi yo'nilg'ilarning negativlari saqlanib qolgan (7-rasm, 1-2).

Zirabuloqning so'nggi paleolitga oid kolleksiyasida kam sonli yengil ushatg'ich yordamida chaqmoqlab olingan uzunchoq proporsiyali levallua puantlar (tig'lar, fr. pointes) uchraydi. Bu buyumlarning barchasi ikkinchi tartib levallua tig'lar hisoblanadi. Yodgorlikning o'rta paleolit davri kompleksida bunday tig'larning kalta proporsiyalilari uchraydi va ular og'ir ushatg'ichlar yordamida chaqmoqlab olingan.

To'plamning plastinalari orasida levallua tipidagilari ham mavjud va ular yodgorlikning o'rta paleolitga oid kolleksiyasida ham uchraydi. Zirabuloqning ilk so'nggi paleolitga oid kompleksi levallua plastinalari yengil ushatg'ichlar yordamida chaqmoqlab olinganligi bilan ajralib turadi.

Zirabuloqning so'nggi paleolitga oid deb topilgan oddiy plastinalari ham o'rta paleolit davri plastinalaridan yengil ushatg'ich yordamida chaqmoqlanganligi, zarb tepaliklarining diffuzivligi va profillarining qayrilganligi bilan ajralib turadi. Bu plastinalar orasida butun saqlanganlari kam sonli va ular asosan siniqlardan iborat. Plastinalardan ayrimlari retushlangan. To'plamning ikkilamchi ishlov berilgan plastinalari ordinar, yupqa, botiq retushlarga ega. Shuningdek ayrim plastinalar qirralarida mexanik retushlarni ham namoyon qiladi.

Zirabuloqning so'nggi paleolitga oid kompleksi tosh qurollari orasida iskanasimon qurollar seriyasi uchraydi (9-rasm). Bunday qurollar Toshkent va Zarafshon vohalarining o'rta hamda ilk so'nggi paleolitga oid komplekslarida keng tarqalgan. Iskanasimon qurollar Obirahmat madaniyatining belgilovchi tosh buyumlaridan hisoblanadi.


Kolleksiyaning so'nggi paleolit davrini xarakterlaydigan tosh qurollari turkumidan yana biri qirg'ichchalar hisoblanadi.

Zirabuloqning so'nggi paleolitga oid kompleksida qirg'ichchalarning g'arbiy ilk yuqori paleolit uchun xos bo'lgan qalin tipli (karane), tumshuqsimon (amyuzo), perimetrining 4/3 qismi ishlov berilgan va yumaloq shakllilari ham uchraydi (10, 11-rasmlar). To'plamning qirg'ichchalari o'rta paleolit davri qirg'ichchalaridan tipikligi, retushlarning parallelligi va tartibligi bilan ajralib turadi.


Kolleksiyada kesgichlar kam sonli, barchasi oddiy tipli va bu O'zbekiston paleolitining xarakterli xususiyatlaridan biridir. Kesgichlar o'rta paleolit davri komplekslarida bo'lgani kabi yo'nalg'irlarning burchaklarida, o'rta qismlarida, qirralarida, yonlama yoki yupqa retushlash yordamida shakllantirilgan (12, 13-rasmlar). O'zbekiston paleolitida asosan, suyakka ishlov beriladigan kesgich qurollar yasashga kam e'tibor qaratilgan va bu ehtimol, ekstrimalga yaqin paleoekologik sharoitlar bilan bog'liq.

Munozoralar

Shunday qilib, O'rta Zarafshon vohasida joylashgan Zirabuloq makoni materiallari Toshkent vohasida ajratilgan o'rtadan so'nggi paleolit davri industriyalariga o'tish davri yodgorliklariga qator o'xshashliklarga ega. Bu avvalombor, har ikkala komplekslarda ham levallua, yonlama, prizmatik nukleuslarning, iskanasimon qurollarning, oddiy kesgichlarning hukm surganligida namoyon bo'ladi. Biroq Toshkent vohasida anchayin ertaroq paydo bo'lgan va mahalliy asosga ega deb topilgan mikrochaqmoqlash texnikasi O'rta Zarafshon vohasida uchrasada, keng tarqalmagan.



11-rasm. Zirabuloq makoni qirg'ichchalari: 1, 2- qalin tipli qirg'ichchalar (caréné), 3-5- periferik qirg'ichchalar, 6-orinyak tipidagi qirg'ichcha, 7-8-yo'nalg'irlarning ko'ndalang uch qismlarida shakllantirilgan qirg'ichchalar
 Рис. 10. Скребки стоянки Зирабулак: 1, 2 – скребки высокой формы (caréné), 3–5 – периферийные скребки, 6 – скребок ориньякского типа, 7–8 – концевые скребки
 Fig. 11. Scrapers from the Zirabuloq site: 1, 2 – high-shaped scrapers (caréné), 3–5 – peripheral scrapers, 6 – Aurignacian-type scraper, 7–8 – end scrapers



12-13 – rasmlar. Zirabuloq makoni kesgichlari

Рис. 12-13. Резцы со стоянки Зирабулак

Fig. 12-13. Burins from the Zirabuloq site

Shuningdek Obirahmat g'orida kuzatilgan levallua chaqmoqlash texnikasidan kelib chiqqan keng yuzadan asimmetrik vektor bo'ylab plastinalar sindirib olish texnikasi O'rta Zarafshon vohasida tarqalmadi va bu boshlang'ich tosh xomashyosining gabaritlari bilan bog'liq. Negaki O'rta Zarafshon vohasida Obirahmat g'ori atrofida keng tarqalgan kuchli darajada kremniylashgan plastik oxaktosh qoyalari uchramaydi va zirabuloqliklar ko'proq Ziyoviddin tog'lari etaklaridan yig'ib keltirilgan kichik hajmli galkalardan foydalanishganlar.

Ta'kidlaganimizdek, O'rta Zarafshon vohasi o'tish davri industriyalari (Zirabuloq, Qo'tirbuloq) Toshkent vohasining bunday komplekslaridan o'ziga xos tafovutlarga ham ega. Bunday tafovutlar avvalombor, Zirabuloqda Obiraxmatda uchramaydigan Orinyakka xos qirg'ichchalar (amyuzo, perimetrining $\frac{3}{4}$ qismida ishlangan, disksimon) hamda ko'rsatgich barmoq tipidagi pichoqlarni chaqmoqlab olishning konseptual texnologiyalarining hukm surganligida kuzatiladi.

Xulosa

Tadqiqotlarning bugungi taraqqiyot darajasi O'rta Zarafshon vohasida joylashgan o'rta, so'nggi paleolit va mezolit davriga oid arxeologik komplekslarni qamrab olgan Zirabuloq makoni materiallari asosida quyidagi xulosalarni qilish imkonini beradi:

1. Zirabuloq makoni misolida aytish mumkinki, O'rta Zarafshon vohasi o'rta paleolit davrining levallua variantiga oid jamoalari tomonidan egallangan;

2. O'rta Zarafshon vohasi so'nggi paleolit davri madaniyati o'rta paleolitning mahalliy parallel-levallua varianti asosida avtohton kelib chiqish ildizlariga ega;

3. Toshkent hamda O'rta Zarafshon vohalari o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish davri industriyalari ehtimol, yagona genezisga ega va keyinchalik ushbu

populyatsiyalarning hududiy uzoqlashuvi, turli paleoekologik sharoitlar (xomashyo, paleoekologiya va h.k.) ular o'rtasidagi madaniy differentsiyalashuvga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Вишняцкий Л. Б.* Человек в лабиринте эволюции // «Весь Мир». М.: 2004. 156 с.
- Гречкина Т. Ю.* Некоторые итоги исследования Зирабулакской палеолитической стоянки // Археологические работы на новостройках Узбекистана. Ташкент, 1990. 240 с.
- Деревянко А. П.* Переход от среднего к верхнему палеолиту и проблема формирования homo sapiens sapiens. в Восточной, Центральной и Северной Азии. Изд-во ИАЭА СО РАН, Новосибирск, 2009. С. 220.
- Кривошапкин А. И.* Обирахматский вариант перехода от среднего к верхнему палеолиту в Центральной Азии. Автореф. дисс. на соискание ученой степени д.и.н. Новосибирск, 1992. 51 с.
- Sayfullaev B. Q.* O'rta Zarafshon vohasi tosh davri madaniyatları (Zirabuloq makoni materialları asosida). Samarqand. 2023. 385 б.
- Семенов С. А.* Первобытная техника (Опыт изучения древнейших орудий и изделий по следам работы) // МИА. №54. М.–Л., 1957. 240 с.
- Сулейманов Р. X., Майкл Г.* Грот Ангиллак на территории Кашкадаринской области // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. Ташкент, 2003. С. 17–23.
- Ташкенбаев Н. X.* Некоторые данные по палеолиту Зарафшанской долины // ИМКУ. Вып. 21. Ташкент, 1987. С. 3–11.
- Bordes F.* Typologie du paléolithique ancien et moyen. éd. Delmas, 2 vol. Bordeaux, 1961. P. 216. Brezillon Michel. La dénomination des objets de pierre taillée. Matériaux pour un vocabulaire des préhistoriens de langue française. IV – supplément a Gallia Préhistoire. CNRS. 1983. 425 p.
- Lumley H. De.* Le Paléolithique inférieur et moyen du Midi méditerranéen dans son cadre géologique, Vol. I: Ligurie, Provence: Vol. II: Bas-Languedoc, Roussillon, Catalogne. Gallia préhistoire Supplément 5. CNRS. Paris, 1971. 130 p.
- Lumley H. De.* Lexique des caractéristiques de l'industrie lithique. Paris, 1974. 120 p.
- Pelegrin Jacque, Texier Pierre-Jean.* Les techniques de taille de la pierre préhistorique « Dossiers d'Archéologie » № 290, Février La tribologie. Comment la science fait parler les vestiges archéologiques. 2004. P. 26–33.
- Thiebaut C.* Denticulate Mousterian: Myth or Reality? // Middle Paleolithic Human Activity and Paleoecology: New Discoveries and Ideas. Wrocław: Studia Archeologic XLI. 2010. 232 p.
- Африка – одна из прародин человека современного анатомического типа // https://www.ras.ru/derevianko_ru/944bfb4a-6791-4e59-908c-5085d6f9fe6d.aspx

REFERENCES:

- Vishnyatskiy L. B. 2004. *Chelovek v labirinte evolyutsii (Man in the labyrinth of evolution)*. Moscow: Ves' Mir Publ., 156. (In Russian).
- Grechkina T. Yu. *Nekotorie itogi issledovaniya Zirabulakskoy paleoliticheskoy stoyanki (Some results of the study of the Zirabulak Paleolithic site)*. In *Arxeologicheskie raboti na novostroykax Uzbekistana (Archaeological work at new buildings in Uzbekistan)*. Tashkent, 1990, 240. (In Russian).
- Derevyanko A. P. 2009. *Perexod ot srednego k verxnemu paleolitu i problema formirovaniya homo sapiens sapiens v Vostochnoy, Sentralnoy i Severnoy Azii (The transition from the Middle to the Upper Paleolithic and the problem of the formation of Homo sapiens sapiens in East, Central and North Asia)*. Novosibirsk: IAEA SO RAN Publ., 220. (In Russian).
- Krivoshapkin A. I. 1992. *Obiraxmatskiy variant perexoda ot srednego k verxnemu paleolitu v Sentralnoy Azii (Obirakhmat variant of the transition from the Middle to the Upper Paleolithic in Central Asia)*. Avtoref. diss. na soiskanie uchenoy stepeni d.i.n. Novosibirsk, 51. (In Russian).
- Sayfullaev B. K. 2023. *O'rta Zarafshon vohasi tosh davri madaniyatları (Zirabuloq makoni materialları asosida) Stone Age cultures of the Middle Zarafshan oasis (based on materials from the Zirabulak site)*. Samarkand, 385. (In Uzbek).
- Semenov S. A. 1957. *Pervobitnaya texnika (Opit izucheniya drevneyshix orudiy i izdeliy po sledam raboti) (Primitive Technology (An Experiment in Studying the Most Ancient Tools and Products Based on Traces of Work))*. In *MIA (Materials and research on the archeology of the USSR)*. №54. Moscow-Leningrad, 240. (In Russian).
- Suleymanov R. X, Maykle G. 2003. *Grot Angillak na territorii Kashkadarinskoy oblasti (Angillak Grotto in the Kashkadarya region)*. In *Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2002 g. (Archaeological research in Uzbekistan 2002)*. Tashkent, 17–23. (In Russian).

- Tashkenbaev N. X. 1987. Nekotorie Dannie po paleolitu Zarafshanskoy dolini (Some data on the Paleolithic of the Zarafshan Valley). In *IMKU (History of the material culture of Uzbekistan)*. Issue 21. Tashkent, 3–11. (In Russian).
- Bordes F. 1961. *Typologie du paléolithique ancien et moyen (Typology of the Early and Middle Paleolithic)*. Delmas (éd.). 2 vol. Bordeaux, 216. (In French).
- Brezillon Michel. 1983. *La dénomination des objets de pierre taillée. Matériaux pour un vocabulaire des préhistoriens de Langue française (The naming of carved stone objects. Materials for a vocabulary of French-speaking prehistorians)*. IV supplément a Gallia Préhistoire. Paris, CNRS, 425. (In French).
- Lumley H. De. 1971. Le Paléolithique inférieur et moyen du Midi méditerranéen dans son cadre géologique (The Lower and Middle Paleolithic of the Mediterranean South in its geological framework). Vol. I: Ligurie, Provence: Vol. II: Bas-Languedoc, Roussillon, Catalogne. Gallia préhistoire Supplément 5. Paris, CNRS, 130. (In French).
- Lumley H. De. 1974. Lexique des caractéristiques de l'industrie lithique (Glossary of characteristics of the lithic industry.). Paris, 120. (In French).
- Pelegri Jacques, Texier Pierre-Jean. 2004. *Les techniques de taille de la pierre préhistorique «Dossiers d'Archéologie» (Prehistoric stone cutting techniques "Archaeology Files")*. Issue 290. Février La tribologie. Comment la science fait parler les vestiges archéologiques, 33. (In French).
- Thiebaut C. 2010. *Denticulate Mousterian: Myth or Reality?* In *Middle Paleolithic Human Activity and Paleoecology: New Discoveries and Ideas*. Wrocław: Studia Archeologic XLI, 232. (In English).
- Afrika – odna iz prarodin cheloveka sovremennogo anatomicheskogo tipa (Africa is one of the ancestral homes of modern humans). https://www.ras.ru/derevianko_ru/944bfb4a-6791-4e59-908c-5085d6f9fe6d.aspx (In Russian).
-

THE MIDDLE ZARAFSHAN MODEL OF THE TRANSITION FROM THE MIDDLE TO THE LATE PALEOLITHIC IN UZBEKISTAN

© 2025. Baxtiyor Sayfullaev

Samarkand Institute of Archaeology named after Y.G. Gulyamov

Key words: Obirahmatian variant, transition from Middle to Late Palaeolithic, Zirabulak, Middle Zarafshan, Tashkent oasis, nucleus, blade, microknapping, chisel-shaped tool, raw material, Mustier, Palaeolithic.

As a result of studies of the joint Uzbek-Russian international archaeological expedition in the Tashkent Oasis between 1998 and 2011, the Obirahmat model of the transition from the Middle to Late Paleolithic was developed. It has been scientifically demonstrated that this model emerged locally in close contact with Middle Palaeolithic cultures of the Near East and Zagros and developed into the Late Palaeolithic culture. Late Palaeolithic sites of the Tashkent oasis, such as Obirahmat, Kyzylalma-2, Kulbulak and Dodekatym 1 and 2 are classified as monuments of the Obirahmat model. Traditionally, Middle Paleolithic cultures have been defined according to F. Bordes' system, based on materials from France. Furthermore, the onset of the Late Paleolithic worldwide was often viewed as a result of revolutionary cultural leaps associated with the emergence of anatomically modern humans (*Homo sapiens sapiens*). Recent research, however, suggests that the transition from the Middle to Late Paleolithic occurred gradually and evolutionarily, with cultural elements characteristic of the Late Paleolithic beginning to form as early as the Middle Paleolithic. The article highlights the Middle Zarafshan transition from Middle to Late Paleolithic on the basis of archaeological materials of the Zirabulak site. The monument is located 100 kilometres north-west of Samarkand, in the foothills of the Ziauddin Mountains, at an altitude of 475 metres above sea level. In addition, the differences and similarities of this model from the Obirahmat variant in the Tashkent Oasis have been determined. The similarity of these variants lies in the development of both cultures on the basis of Levalloisian technologies, in the presence of edge-faceted both edges cores, prismatic and Levalloisian cores, as well as chisel tools, carinated end-scrapers and ordinal burins. The differences between them, undoubtedly related to palaeoenvironmental conditions, can be traced in the absence in Obirahmat of Zirabulak nuclei splittings for the removal of index finger knives and vice versa, the absence in the Middle Zarafshan Palaeolithic of the technology of voluminous cores, widely represented in Obirahmat. Besides, in the complexes of the Obirahmat variant only a variety of carinated end-scrapers (caréné) is found, while in Zirabulak scrapers characteristic of the Orignac culture of Western Europe, such as end-scraper with nose (à museau), peripheral, rounded, etc., were found. The above-mentioned differences, though possibly of solitary origin, allow us to distinguish the Early Late Palaeolithic variants in the Tashkent oasis and the Zarafshan valley into separate variants.